

### Savdo qoidalarining buzilishiga asos bo‘ladigan holatlar!

**B.Sharipov**

Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi  
Huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish va  
metodik ta’minlash sho‘basi  
bosh maslahatchisi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O‘zbekiston Respublikasida umumiyligi ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan umumiyligi ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish tartibiga ko‘ra,

narxlarni asossiz ravishda oshirish;

tovarlar, mahsulotlarni noto‘g‘ri o‘lchash, noto‘g‘ri tortish yoki xizmatlar ko‘rsatmaslik;

tovarlar, mahsulotlarni (xizmatlarni) chek (kvitansiya, schot) bermasdan sotish;

xaridorga tovarning, mahsulotning miqdori, vaznini tekshirish imkoniyati yaratishdan bosh tortish;

nosoz yoki tamg‘alanmagan tortish va o‘lchash priborlaridan foydalanish;

quyidagilarga:

to‘lov terminallari bilan jihozlash va pul hisob-kitoblarini amalga oshirishda ularni qo‘llash tartibiga;

ayrim turdagilari mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash tartibiga va qoidalariga;

nazorat-kassa mashinalarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa onlayn nazorat-kassa mashinalari yoki virtual kassalarni qo‘llash tartibiga;

alkogol va tamaki mahsulotlarini hamda tamakini va nikotinni iste’mol qilish moslamalarini sotish;

quyidagilarni:

sifatsiz tovarlarni, kulinariya buyumlarini va atayin nostandard mahsulotlarni sotish, shuningdek xaridorga sotilgan sifatsiz tovarni, mahsulotni almashtirib berishni yoki pullarni qaytarishdan bosh tortish;

tovarlarni, mahsulotlarni ularning sifatini va ishlab chiqarish markasini tasdiqlovchi yoki sertifikatsiyalangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarsiz sotish;

## VOLUME-2, ISSUE-9

ishlab chiqarish markasida yoki tovar belgisida tayyorlovchining nomi va joylashgan o'rni to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan tovarlarni sotish;

identifikatsiya vositasi bilan majburiy raqamli markirovkalanmagan tovarlarni sotish (identifikatsiya vositasi bilan majburiy raqamli markirovkalash talab etiladigan mahsulotlar uchun);

yaroqlilik muddati o'tgan tovarlarni sotish;

polimer plyonkali paketlarni bepul berish, ularning qiymatini O'zbekiston Respublikasi hududida sotiladigan tovarlar qiymatiga qo'shish, shuningdek, ularni o'z tannarxidan past narxlarda sotish (tutqichsiz va tovarlarning ajralmas qismi hisoblangan paketlar bundan mustasno), **savdo qoidalaring buzilishiga asos bo'ladi** hamda rshbu Qoidalarni buzganlik O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksiga](#) va O'zbekiston Respublikasining Jinoiy [kodeksiga](#) muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.